ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....	1341
Аминжоновна Вазира Мамасидиковна	
DZYUDOCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA TA'SIRI.....	1350
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISKLARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК.....	1392
Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмутуллаева Севинч Хабибулла кизи	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	1399
Norova Nozima Nabiyevna	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1406
Ahmedova Dilnoza Qalandar qizi	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING EKOLOGIK MUVOZANATINI SAQLASH ORQALI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI (NAVOIY VILOYATI TAJRIBASI)	1411
Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
KORXONALARDA ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) HISOBOTLARINING AUDITINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEKANIZMLARI.....	1417
Xolikov Ravshan Anvar o'g'li	



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1420
Omonov Olim Murodullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1424
Sharifi Abdul Fatah	
TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR	1430
Sadikov Q.M.	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	1434
Kurbosheva Mohira Xafizovna	
MURAKKAB LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH	1439
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1442
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'ZBEKISTON HUDUDIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI	1448
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich	
O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1456
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ПЕРСОНАЛОМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ЦИФРОВИЗАЦИЯ, УПРАВЛЕНИЕ ТАЛАНТАМИ И МОТИВАЦИЯ	1462
Абилов Эльман Худаверди оглы	
O'ZBEKISTON BANKLARINING AML TIZIMLARIDA SUN'YI INTELLEKT: STRATEGIK ZARURAT VA JORIY ETISH YO'LLARI	1468
Rashidov Avazbek Raximovich	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TUG'ILISH KO'RSATKICHLARI STATISTIK TAHLILI	1475
Abduraxmanov Abduazim Djalaliddinovich	
BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURLAR BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1483
Bo'tayev O'tkir Eshboevich	
TIJORAT BANKLARINI DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQRISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI CHUQURLASHTIRISH YO'LLARI	1489
Salamov Islom Tashkazakovich	
FRANCHAYZING ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALAR MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORDA ILGARI SURISHDA MERCHANDAYZING DIZAYNI VA VIZUAL MARKETING YONDASHUVLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1495
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISHLAB CHIQRADIGAN SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH	1501
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING AXAMIYATI.....	1510
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI.....	1516
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SAMARADORLIGI OMILLARI TAHLILI	1522
Maxmudova Maftunaxon Shavkatjon qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORIJIY KREDIT LINIYALARINI JALB ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING AMALDAGI HOLATI	1529
Aytiboev Nodirbek Rashid o'g'li	



AUDITDA MUHIMLIK CHEGARASI KO'RSATKICHINI ANIQLASH MUAMMOLARI.....	1534
Pirnazarova Juldiz Djamiljan qizi	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ СТРАН МИРА И УЗБЕКИСТАНА.....	1538
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI MUSTAHKAMLASHDA MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	1544
Imanova Umida Baxtiyorovna	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF VOCATIONAL EDUCATION SYSTEMS IN SAUDI ARABIA AND UZBEKISTAN	1549
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
YO'LOVCHI TASHISHDA KICHIK TADBIRKORLIK SHAKLLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MODELLARI	1555
Aytieva Sevara Allaberdievna	
XIZMATLAR SEKTORIGA INVESTITSIYA JALB QILISHDA STRATEGIK TAMOYILLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY NATIJALARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI.....	1561
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li, Nabiyev G'ulom Abdusalomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA UNIVERSITETLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	1566
Boboxo'jayev Asliddin Muzaffarovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" GA O'TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISH	1571
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA XIZMATLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ZARURLIGI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1575
Umirov Abdusalom To'rayevich	
ASOSIY VOSITALAR HISOBINING ICHKI AUDITI.....	1583
Zaripova Sayohat Zafarovna	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIDA TO'LOVLAR TIZIMINING MOHIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI	1587
Tangirqulov G'ulom Baxtiyorovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNING UMUMIY HOLATI VA DINAMIKASI	1592
Asomidinova Mohigulbonu Oybek qizi	
XALQ BANKIDA KICHIK BIZNES LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	1598
Norqobilova Nargiza Abdiqodirovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA AYRIM MASALALAR.....	1603
Abidov Mansur Ilhomjonovich	
BANK 4.0 SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1609
Boltayev Zokirjon Otanazarovich	
FMCG SEGMENTIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI VA UNING ASOSIY OMILLARI	1612
Anvar Deberdiyev	
XORAZM VILOYATIDA XORIJIY INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASHDA MARKETINGNING ROLI	1616
Otajanov Umid Abdullayevich, Isakova Naima Ikromjonovna	



XORAZM VILOYATIDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASHDA MARKETINGNING ROLI

Otajanov Umid Abdullayevich

Ma'mun universiteti professori, DSc

E-mail: umidotajanov@rambler.ru

Isakova Naima Ikromjonovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

E-mail: noimaisakova@gmail.ru

Annotatsiya. Marketing faoliyatida xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, bozor ulushini kengaytirish hamda brend qiymatini yuksaltirishda investitsiyalarning o'rnini aniqlashni nazarda tutadi. Mazkur jarayon investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va ularning bozor qiymatiga ta'sirini kompleks tahlil qilishni talab etadi. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullari asosida iqtisodiy tahlillar amalga oshirilgan. Shuningdek, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor vazifalari hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: marketing, investitsiya, xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, rag'batlantirish, marketing faoliyati, samaradorlik, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. Evaluating the efficiency of the use of foreign investments in marketing activities involves identifying the role of investments in increasing a company's competitiveness, expanding market share, and enhancing brand value. This process requires a comprehensive analysis of the economic efficiency of investments and their impact on market value. The research applies economic analysis based on the methods of scientific abstraction, analysis, synthesis, induction, and deduction. In addition, key priorities of state policy and practical recommendations aimed at improving the investment environment are proposed.

Key words: marketing, investment, foreign investments, investment environment, incentives, marketing activities, efficiency, economic development.

Аннотация. Оценка эффективности использования иностранных инвестиций в маркетинговой деятельности предполагает определение роли инвестиций в повышении конкурентоспособности предприятия, расширении рыночной доли и увеличении стоимости бренда. Данный процесс требует комплексного анализа экономической эффективности инвестиций и их влияния на рыночную стоимость. В исследовании экономический анализ проведён на основе методов научной абстракции, анализа, синтеза, индукции и дедукции. Кроме того, представлены приоритетные направления государственной политики и практические рекомендации по дальнейшему совершенствованию инвестиционной среды.

Ключевые слова: маркетинг, инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиционная среда, стимулирование, маркетинговая деятельность, эффективность, экономическое развитие.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash hamda aholi farovonligini oshirish maqsadida muayyan hududlarning iqtisodiy-moliyaviy tizimini kompleks tadqiq etish, ichki va tashqi determinant omillarning o'zaro ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish hamda natijada asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.



Xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholashda marketing strategik va tahliliy vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Investitsiya nafaqat kapital oqimini, balki bozor imkoniyatlarini ham ifodalaydi. Shu sababli marketing investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mamlakat iqtisodiyotini global qiymat zanjirlari bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar mamlakatlarga kapital oqimi, yangi ish o'rinlari, eksport hajmining ortishi, ta'minot zanjiri rivoji, zamonaviy texnologiyalar va ilg'or biznes amaliyotlarini olib kiradi [1].

Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatimizdagi mavjud texnologik va moliyaviy rivojlanish imkoniyatlaridan kelib chiqib, xorijiy investitsiyalarni, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasini alohida hududlar kesimida ham chuqur ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotga, xususan, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan kichik biznes sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda ular ishtirokida tashkil etilgan korxonalar faoliyatining turli jihatlarini xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanishning nazariy asoslari L.J. Gitman, M.D. Jonk, J. Dunning, R. Narullo, T.G. Kubakh, S. Hladii, A.O. Malay, L. Krkosa kabi yetakchi xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan [3-6].

Rivojlanayotgan davlatlarda xorijiy investitsiyalarning kichik biznes sohasida shakllanishi va rivojlanishi masalalari MDH olimlaridan A.A. Agafonov, Z.V. Gerasimchuk, L.V. Davidova, E. Kocherin, L.A. Sarkisyan va E.A. Rudenko tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda tahlil qilingan [7-10].

O'zbekiston va uning hududlari iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda ulardan samarali foydalanishning nazariy-amaliy jihatlarini A.V. Vaxabov, N.G. Karimov, B.T. Bayxonov, U.A. Otajanov, Sh.G'. Yuldashev, D.D. Rustamova, E.A. Maxmudov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan [11-17].

Mazkur mualliflarning ilmiy ishlarida xorijiy investitsiyalarning mazmuni, mohiyati hamda ularni milliy iqtisodiyotning kichik biznes sohasiga jalb etish masalalari yoritilgan. Biroq iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ekonometrik modellari yetarli darajada alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Bu esa tanlangan mavzu doirasida chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, guruhlash, ekonometrik tahlil hamda tenglamalar tizimi asosida prognozlashtirish usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligi va marketing omillarining iqtisodiy natijalarga ta'siri kompleks ravishda o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholashda marketingning asosiy rollari quyidagilardan iborat:

- Investitsion jozibadorlikni oshirish. Samarali marketing strategiyalari, xususan, hudud yoki korxonaning investitsion salohiyatini to'g'ri yoritish tashqi investorlarni jalb qilish va investitsiya oqimlarini samarali boshqarishga xizmat qiladi [18].

- Bozor tadqiqotlari va tahlili. Investitsiya kiritishdan oldin marketing tadqiqotlari orqali mahalliy va xalqaro bozor talabi, raqobat muhiti hamda iste'molchilar xulq-atvori baholanadi. Bu esa investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligi va ehtimoliy risklarini oldindan aniqlash imkonini beradi [19-20].

- Brending va reputatsiyani boshqarish. Investorlar uchun korxonaga yoki loyiha brenidi va obro'si muhim omil hisoblanadi. Marketing loyiha bozordagi mavqegini mustahkamlab, uning qiymatini (brand equity) oshirish orqali investitsiya rentabelligini (ROI) tezlashtiradi [18].

- Raqamli marketing va samaradorlik. Raqamli marketing vositalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va tahliliy platformalar investitsiya loyihalarini samarali targ'ib qilish hamda ularning natijalarini real vaqt rejimida baholash imkonini beradi [18].

- Investitsiya xatarlarini kamaytirish. Marketing vositalari loyiha bo'yicha sotuv hajmi va daromadlilik ko'rsatkichlarini prognoz qilish orqali xorijiy kapital samaradorligini noto'g'ri baholash xavfini kamaytiradi [21-22].

Shunday qilib, qulay investitsiya muhitini shakllantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunda investitsion jozibador imidjni yaratish, aholi daromadlari va jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishga qaratilgan kompleks dasturlar ishlab chiqish, xorijiy investorlar faoliyatini tartibga soluvchi



huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, investitsiya loyihalari sonini ko'paytirish hamda xususiy investitsiyalarga asoslangan rivojlanish modelini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, tarmoqlar, korxonalar va hududlar darajasida investitsion faoliyat natijalarini tizimli monitoring qilish, hududlarning investitsion jozibadorligini prognozlash, xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda ustuvor tarmoqlarda xorijiy investorlar uchun qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlarini takomillashtirish investitsion muhitni yanada yaxshilashga xizmat qiladi [11-12].

Mavzu doirasidan kelib chiqib, Xorazm viloyatida investitsion muhitni takomillashtirish, investitsiyalardan foydalanish samaradorligi hamda kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi omillarni baholash masalalari ko'rib chiqiladi. Shu maqsadda tadqiqot obyekti sifatida Xorazm viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining o'zgarish dinamikasi ko'p omilli ekonometrik tahlil asosida o'rganiladi [13].

Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatidagi kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi quyidagi omillar bo'yicha ekonometrik tahlil amalga oshiriladi:

- oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni – X1;
- kichik biznes subyektlari soni – X2;
- kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi – X3;
- jami mehnat resurslari soni – X4.

Mazkur omillarning investitsiya hajmiga ta'siri 1-jadval asosida ekonometrik usullar yordamida tahlil qilinadi [11-12] (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti¹

	YAKI	X1	X2	X3	X4
YAKI	1				
X1	0,849244	1			
X2	0,907835	0,629103	1		
X3	0,726686	0,565732	0,598336	1	
X4	-0,689223	0,636556	0,648646	0,69734	1

Jadval qiymatlariga e'tibor qaratisa, Xorazm viloyati kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi (YAKI) omiliga nisbatan oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni – X1 ($r_{YAKI,X1} = 0,849244$) hamda kichik biznes subyektlari soni – X2 ($r_{YAKI,X2} = 0,907835$) bilan kuchli musbat bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi – X3 ($r_{YAKI,X3} = 0,726686$) bilan o'rtacha darajadagi musbat bog'liqlik aniqlangan.

Biroq viloyatdagi kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi bilan jami mehnat resurslari soni – X4 ($r_{YAKI,X4} = -0,689223$) o'rtasida o'rtacha darajadagi teskari bog'liqlik mavjudligi kuzatildi. Bu holat viloyatda mehnat resurslari sonining ortishi investitsiya samaradorligiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Omillar o'rtasida $r_{X1,X2} < 0,8$ sharti bajarilganligi sababli multikollinearlik holati kuzatilmadi. Shu bois aniqlangan bog'liqlik asosida regressiya tenglamasini EViews dasturi yordamida davom ettirish mumkin bo'ldi (2-jadval).

Hisob-kitoblar natijasida jadvalning koeffitsientlar ustunida keltirilgan qiymatlar asosida quyidagi regressiya tenglamasi shakllantirildi:

$$\ln Y_{AKI} = 3.35 \ln X_1 + 0.68 \ln X_2 + 0.36 \ln X_3 + 0.81 \ln X_4 - 34.55614$$

Endi 2-jadvalning qolgan ustunlarida keltirilgan qiymatlar asosida regressiya tenglamasining sifat mezonlari bo'yicha tekshiruv amalga oshiriladi. Dastlab parametrlarning t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatligiga e'tibor qaratisa, $\alpha = 0,05$ va $df = 11$ bo'lganda $t_{Jad} = 2,200985$ ga tengligi aniqlangan. Natijalarga ko'ra, faqat oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni – X1 ($t_{X1} = 3,905676 > t_{Jad} = 2,200985$) statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi kuzatildi (2-jadval).


1 Muallif ishlanmasi



2-jadval. Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiya hajmining o'zgarishini regressiya tenglamasi natijalari²

Dependent Variable: LNYAKI				
Method: Least Squares				
Date: 05/13/23 Time: 09:08				
Sample: 2007 2022				
Included observations: 16				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LN1	3.351084	0.858004	3.905676	0.0025
LN2	0.681821	0.589919	1.155788	0.0372
LN3	0.364055	0.589655	0.617403	0.0495
LN4	0.805215	0.44512	1.808984	0.0168
C	34.55614	18.61435	1.856425	0.1726
			tjad=2,200985	
R-squared	0.592067	Mean dependent var	7.490881	
Adjusted R-squared	0.443728	S.D. dependent var	1.021842	
S.E. of regression	0.762127	Akaike info criterion	2.544899	
Sum squared resid	6.389211	Schwarz criterion	2.786333	
Log likelihood	-15.35919	Hannan-Quinn criter.	2.557263	
F-statistic	3.991310	Durbin-Watson stat	1.893995	
Prob(F-statistic)	0.030710	Fjad=0,297913		

Qolgan parametrlarning ahamiyatlilik darajasini yanada aniqroq baholash maqsadida retrospektiv sifat mezonlari — MAPE (Mean Absolute Percentage Error — o'rtacha mutlaq foiz xatosi) hamda TIC (Theil Inequality Coefficient — prognoz aniqligining muqobil ko'rsatkichi) yordamida qo'shimcha tekshiruv amalga oshirildi [13-14] (3-rasm).



Forecast: LNYAKI01F	
Actual: LNYAKI01	
Forecast sample: 2007 2022	
Included observations: 16	
Root Mean Squared Error	0.415531
Mean Absolute Error	0.313048
Mean Abs. Percent Error	4.201087
Theil Inequality Coefficient	0.027518
Bias Proportion	0.000000
Variance Proportion	0.048476
Covariance Proportion	0.951524
Theil U2 Coefficient	0.506944
Symmetric MAPE	4.156435

3-rasm. (1)-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi³

3-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib ta'kidlash mumkinki, MAPE = 4,201 bo'lib, ushbu ko'rsatkich MAPE < 10% shartini qanoatlantiradi. Shuningdek, TIC = 0,0275 < 1 bo'lib, uning nolga yaqinlashuvi 1-regressiya tenglamasi parametrlarining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi



Logarifmik funksiyaning xossaligidan hamda hisob-kitob jarayonlarini soddalashtirish va natijalar aniqligini oshirish maqsadida yuqorida hosil qilingan 1-regressiya tenglamasi potentsiallashtirildi va natijada quyidagi tenglama shakllantirildi:

$$Y_{AKI} = \frac{X_1^{3.35} \cdot X_2^{0.98} \cdot X_3^{0.36} \cdot X_4^{0.81}}{e^{34.55614}}$$

Hosil qilingan 1*-regressiya tenglamasining statistik ahamiyatligi Fisher mezonini asosida tekshirildi. $\alpha = 0,05$ hamda $k_1 = 11$, $k_2 = 4$ bo'lganda $F_{Jad} = 0,297913$ ga tengligi inobatga olindi. Hisoblangan Fisher qiymati $F_{his} = 3,991310$ bo'lib, $F_{Jad} < F_{his}$ sharti bajarilganligi sababli 1*-regressiya tenglamasi statistik jihatdan ahamiyatli deb baholandi.

Shuningdek, Durbin–Watson statistikasi $DW = 1,894$ ga teng bo'lgani sababli modelda avtokorrelatsiya mavjud emasligi aniqlandi. Bu esa regressiya tenglamasining ishonchligi va adekvatligini tasdiqlaydi.

1*-regressiya tenglamasi natijalariga ko'ra, agar Xorazm viloyatida oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni, kichik biznes subyektlari soni va mehnat resurslari soni 1,0 foizga oshirilsa, viloyat kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi mos ravishda 158,7 mlrd so'm, 31,8 mlrd so'm va 37,9 mlrd so'mga qo'shimcha ortishi aniqlandi.

Bundan tashqari, agar viloyatda kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 1,0 foizga oshirilsa, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi qo'shimcha ravishda 16,8 mlrd so'mga oshishi prognoz qilinmoqda.

Keyingi bosqichda Xorazm viloyati kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha ekonometrik tahlil amalga oshiriladi. Bunda viloyat statistika boshqarmasining 2010–2024-yillarga oid statistik ma'lumotlaridan foydalanildi.

Mazkur tahlilda Xorazm viloyati kichik biznes subyektlariga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi — Y_x natijaviy ko'rsatkich sifatida tanlanib, unga quyidagi omillarning ta'siri baholanadi:

- oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni — X_1 ;
- kichik biznes subyektlari soni — X_2 ;
- kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi — X_3 ;
- jami mehnat resurslari soni — X_4 .

Dastlab natijaviy va omillar o'rtasidagi bog'liqlik darajasini aniqlash maqsadida korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblab chiqiladi [13-14] (4-jadval).

4-jadval. Xorazm viloyatining kichik biznes subyektlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyenti⁴

	Y_x	X_1	X_2	X_3	X_4
Y_x	1				
X_1	0,925899	1			
X_2	0,884067	0,829103	1		
X_3	0,892058	0,779559	0,783095	1	
X_4	0,725455	0,636556	0,848646	0,852719	1

Jadvalda keltirilgan hisob-kitob natijalariga e'tibor qaratsa, Xorazm viloyati kichik biznes subyektlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi — Y_x omiliga nisbatan oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni — X_1 ($r_{YX,X1} = 0,925899$), kichik biznes subyektlari soni — X_2 ($r_{YX,X2} = 0,884067$) hamda kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi — X_3 ($r_{YX,X3} = 0,892058$) bilan kuchli musbat bog'liqlik mavjudligi aniqlangan.

Shuningdek, viloyat kichik biznes subyektlari asosiy kapitaliga investitsiyalar hajmi bilan jami mehnat resurslari soni — X_4 ($r_{YX,X4} = -0,689223$) o'rtasida o'rtacha darajadagi bog'liqlik kuzatilgan. Bu holat tanlangan omillarning o'zgarishi natijaviy ko'rsatkichga sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatida tanlangan omillar ko'rsatkichlarining oshishi xorijiy investitsiyalar hajmining ham ortishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, oliy ma'lumotli kadrlar soni, kichik biznes

4 Muallif ishlanmasi



subyektlari faoliyati va ishlab chiqarish hajmining kengayishi investitsion faollikni rag'batlantiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Xorazm viloyati kichik biznes subyektlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida $rx_1, x_2 < 0,8$ sharti bajarilganligi sababli multikollinearlik holati kuzatilmadi. Shu bois aniqlangan bog'liqlik asosida regressiya tenglamasini EViews dasturi yordamida aniqlashni davom ettirish mumkin bo'ldi.

Buning uchun dastlab tanlangan omillarning o'lchov birliklari turlicha ekanligi inobatga olinib, barcha ko'rsatkichlar logarifmlashtirildi. Natijada natijaviy omil va barcha mustaqil omillar e asosidagi natural logarifm ko'rinishiga keltirildi (5-jadval).

5-jadval. Xorazm viloyatining kichik biznes sub'ektlariga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmining o'zgarishini regressiya tenglamasi natijalari⁵

Dependent Variable: LNYX				
Method: Least Squares				
Date: 05/13/23 Time: 10:05				
Sample: 2007 2022				
Included observations: 16				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LN1	2.182364	0.709958	3.073934	0.0106
LN2	1.200421	0.958765	1.252049	0.0265
LN3	0.622015	0.231326	2.688913	0.0211
LN4	0.004674	0.470687	0.009929	0.0023
C	-26.84367	8.474349	-3.167638	0.0093
			tjad=2,200985	
R-squared	0.934672	Mean dependent var		4.960758
Adjusted R-squared	0.910917	S.D. dependent var		1.831444
S.E. of regression	0.546627	Akaike info criterion		1.880208
Sum squared resid	3.286817	Schwarz criterion		2.121642
Log likelihood	-10.04166	Hannan-Quinn criter.		1.892571
F-statistic	39.34552	Durbin-Watson stat		1.915266
Prob(F-statistic)	0.000002	Fjad=0,297913		

Jadval ma'lumotlarida keltirilgan koeffitsiyentlar qiymatlaridan kelib chiqib, quyidagi regressiya tenglamasi hosil qilindi:


$$\ln Y_x = 2,1 \ln X_1 + 1,2 \ln X_2 + 0,62 \ln X_3 + 0,01 \ln X_4 - 26,84367$$

Belgilangan tartibga ko'ra, aniqlangan 2-regressiya tenglamasi parametrlarining statistik ahamiyatligi t-Statistic mezonini asosida tekshirildi. Bunda $\alpha = 0,05$ va $df = 11$ bo'lganda $t_{Jad} = 2,200985$ ga tengligi inobatga olindi.

Natijalarga ko'ra, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni — X_1 ko'rsatkichi bo'yicha $t_{X1} = 3,073934 > t_{Jad} = 2,200985$ hamda kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi — X_3 ko'rsatkichi bo'yicha $t_{X3} = 2,688913 > t_{Jad} = 2,200985$ bo'lganligi sababli ushbu omillar parametrlari statistik jihatdan ahamiyatli deb baholandi.

Qolgan parametrlarning ahamiyatlilik darajasini aniqlashtirish maqsadida MAPE va TIC retrospektiv sifat mezonlari asosida qo'shimcha tekshiruv o'tkazish talab etiladi [13-14] (6-rasm).

5 Muallif ishlanmasi



Forecast:	LNYXF
Actual:	LNYX
Forecast sample:	2007 2022
Included observations:	16
Root Mean Squared Error	0.437641
Mean Absolute Error	0.366274
Mean Abs. Percent Error	8.455153
Theil Inequality Coefficient	0.041608
Bias Proportion	0.000000
Variance Proportion	0.015709
Covariance Proportion	0.984291
Theil U2 Coefficient	0.554262
Symmetric MAPE	8.355726

6-rasm. (2)-regressiya parametrlarini retrospektiv sifat mezonlari natijasi⁶

6-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga asosan shuni ta'kidlash mumkinki, MAPE = 8,455 bo'lib, u MAPE < 10% shartini qanoatlantiradi, ya'ni MAPE = 8,455 < 10% tengsizligi bajarilgan. Shuningdek, TIC = 0,0416 < 1 bo'lib, prognoz aniqligi ko'rsatkichining nolga yaqinligi 2-regressiya tenglamasi parametrlarining statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi.

Matematika qoidalari, logarifmik funksiyaning xossalari hamda model qiymatlarining real statistik ma'lumotlarga mosligini ta'minlash maqsadida hosil qilingan 2-regressiya tenglamasi potentsiallashtirildi va quyidagi tenglama shakllantirildi:

$$Y_x = \frac{X_1^{3.35} \cdot X_2^{0.98} \cdot X_3^{0.36} \cdot X_4^{0.81}}{e^{26.84367}}$$

Sifat mezonlari bo'yicha tekshiruvning keyingi bosqichida 2*-regressiya tenglamasining statistik ahamiyatligi Fisher mezon, adekvatligi esa Durbin-Watson mezon yordamida baholandi. Natijalarga ko'ra, $\alpha = 0,05$ va $k_1 = 11$; $k_2 = 4$ bo'lganda $F_{Jad} = 0,297913$ ga tengligi inobatga olinib, hisoblangan Fisher qiymati $F_{his} = 39,35$ ekanligi aniqlandi.

$F_{Jad} < F_{his}$ sharti bajarilganligi sababli 2*-regressiya tenglamasi statistik jihatdan ahamiyatli deb topildi. Bundan tashqari, $DW = 1,915$ ga teng bo'lgani uchun modelda avtokorrelatsiya mavjud emasligi va regressiya tenglamasining ishonchli hamda adekvat ekanligi tasdiqlandi.

Aniqlangan regressiya tenglamasiga iqtisodiy jihatdan izoh beriladigan bo'lsa, Xorazm viloyatida oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni, kichik biznes subyektlari soni va jami mehnat resurslari sonining har biri alohida holda 1,0 foizga oshirilsa, viloyat kichik biznes subyektlariga jalb qilinadigan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi mos ravishda 59,2 mlrd so'm, 32,4 mlrd so'm va 0,3 mlrd so'mga qo'shimcha oshishi aniqlangan.

Shuningdek, viloyat kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini 1,0 mlrd so'mga oshirish natijasida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmini qo'shimcha ravishda 1,2 mlrd so'mga ko'paytirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Tahlil natijalarini umumlashtiradigan bo'lsak, viloyatda oliy o'quv yurtlari bitiruvchilari soni, kichik biznes subyektlari soni hamda kichik biznes subyektlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini oshirish orqali asosiy kapitalga investitsiyalarni, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish mumkinligi aniqlandi.

Shu nuqtai nazardan, eng avvalo viloyatda oliy ma'lumotli mutaxassislar sonini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratish, ularning bandligini ta'minlash maqsadida yangi kichik biznes subyektlari va qo'shma korxonalarni tashkil etish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur nisbat hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi bilan bevosita belgilanadi. Mehnat resurslarini hududiy tashkil etishning mavjud shakllari mehnat salohiyatining o'ziga xos sifat va miqdor ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyati bandlik darajasi, uning tarmoqlar, jins va yosh tarkibi

6 Muallif ishlanmasi



bo'yicha shakllanishiga ta'sir ko'rsatib, mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning barcha jihatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Investitsiyalarni jalb qilish sohasida davlat boshqaruvining tashkiliy asoslari samaradorligini oshirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni shakllantirish iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini kuchaytirish imkoniyatlarini chuqur hisobga olishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- investorlarni izlash markazlarini tashkil etish. Ushbu markazlarning asosiy faoliyati potensial investorlar bozorini o'rganish, istiqbolli investitsiya loyihalarini taqdim etish va investitsion resurslarni samarali yo'naltirish siyosatini shakllantirishga qaratilishi lozim;

- xayriya investitsiyalari bilan bog'liq tadbirlarni rivojlantirish. Bunda yirik va kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarini ijtimoiy-madaniy obyektlarga investitsiya kiritish uchun birlashtirish nazarda tutiladi. Mazkur jarayonlarni ommaviy axborot vositalarida ochiq va shaffof tarzda yoritish investorlar e'tiborini oshirishga xizmat qiladi;

- davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish. Boshqa davlatlarning hududiy jihatdan yaqin mintaqalari bilan hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish, sanoat tarmoqlari va faoliyat yo'nalishlari bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish, kadrlar almashinuvi dasturlarini shakllantirish hamda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy ishlab chiqarish usullarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi;

- shaharlarda yirik savdo markazlari va boshqa investitsion obyektlarni qurishga ruxsat berish mexanizmlarini takomillashtirish. Bunda quruvchi tomonidan iqtisodiyotning boshqa ustuvor obyektlariga ham investitsiya kiritish majburiyatlarini nazarda tutuvchi tizimni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, kichik biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, marketing mexanizmlaridan samarali foydalanish investitsion jozibadorlikni oshirish va investitsiya oqimlarini faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [World Bank – Investment Policy and Promotion](#)
2. Gitman L.J., Jonk M.D. Osnovy investirovaniya; [ingliz tilidan tarjima O.V. Buklemishev va boshq.]. – Moskva: Delo, 2010. – 991 b.
3. Dunning J., Narullo R. Trade, Location of Economic Activity and the MNE: A Search for an Eclectic Approach // The International Allocation of Economic Activity / Edited by B. Ohlin and P.O. Hesselborn. – London: Macmillan, 1977. – pp. 395–418.
4. Kubakh T.G. Investment Climate of the State: Theoretical and Practical Aspects // Effective Economy. – 2013. – №12. [Effective Economy Journal](#)
5. Hladii S. The Financial Mechanism of Investing in Innovative Development: Theoretical and Methodological Management Approach // Science is Young. – 2005. – №3. Science is Young Library Resource
6. Agafonov A.A. Proyektnoe finansirovanie kak forma investitsionnogo kreditovaniya malogo biznesa // Ekonomika i predprinimatelstvo. – 2014. – №5, qism 1. – B. 711.
7. Gerasimchuk Z.V., Tkachuk V.R. Investitsionnyy potentsial regiona: metodika otsenki, mexanizmy narashchivaniya. – Lutsk: Nadstyr'ye, 2009. – 232 b.
8. Davydova L.V., Il'minskaya S.V. Formirovanie strategii razvitiya investitsionnogo potentsiala regiona na osnove otsenki investitsionnykh protsessov // Regionalnaya ekonomika: teoriya i praktika. – 2007. – №1(40). – B. 17.
9. Kocherin E. Investitsii: Politika i strategiya dlya SNG // Investitsii v Rossii. – 2002. – №2.
10. Vaxobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2010. – 10 b.
11. Karimov N.G. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2007. – 40 b.
12. Bayxonov B.T. O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiya-tini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 24 b.
13. Otajanov U.A. O'zbekiston Respublikasi hududlarining investitsion salohiyatini ekonometrik baholashning intellektual faoliyatini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 26 b.
14. Yuldashev Sh.G'. Inostrannye investitsii kak faktor ekonomicheskogo rosta i liberalizatsii natsionalnogo vosproizvodstva Respubliki Uzbekistan. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2001. – 37 b.
15. Rustamova D.D. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2006. – 23 b.



16. Maxmudov E.A. Pryamyje inostrannye investitsii v ekonomiku Uzbekistana: dostijeniya, problemy i perspektivy. – Toshkent, 2007.
17. Jumanazarov Z.Sh. va boshq. Investitsiya iqtisodiy marketing jarayonida // O'zbekistonda uchinchi renessans va innovatsion jarayonlar jurnali. – 2026. – Tom 2, №1. – B. 20–24.
18. Salomova Z.M. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholashning uslubiy asoslari // International Scientific and Practical Conference “International Experience in the Use of Collaborative Technologies in Child Rearing”. – 22-aprel, 2025-yil.
19. Xodjayev A.R. Marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda investitsion salohiyat va uni baholashning ahamiyati // «Ekonomika i turizm» xalqaro ilmiy-innovatsion jurnal. – Buxoro: BuxDU, 2024. – Tom 3, №17.
20. Karlibayeva R.X. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 124 b.
21. Bektemirov A.B., Ruzibayeva N.X., Azimova R.I. Investitsiya va innovatsiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 432 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
